

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Turdialihev Xasanxon Xamraliyevich.

Farg'ona — Temurbeklar maktabi|| harbiy akademik litseyi tatix fani o'qituvchisi

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada korrupsiya tushunchasining mazmuni va mohiyati, korrupsiyaga qarshi kurash kompetentligini takomillashtirish bo'yicha nimalar to\_siq bo\_lmoqda va dolzarb pedagogik muammolar haqida so\_z yuritilgan.

**Abstract:** This article discusses the meaning and essence of the concept of corruption, what are the obstacles to improving the competence of the future teachers in the fight against corruption, and current pedagogical problems.

**Kalit so'zlar:** korrupsiya, bo\_lajak o\_qituvchilar, OTM sifati, korrupsiyaga qarshi kurash kompetentligi, dolzarb pedagogik muammolar.

**Key words:** corruption, future teachers, quality of HEIs, anti-corruption competence, current pedagogical problems

Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo\_lsa, —halollik vaksinasil bilan emlanmas ekan, o\_z oldimizga qo\_ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o\_tishimiz kerak. SHavkat Mirziyoev

Hozirgi kunda Bo\_lajak o\_qituvchilarda korrupsiyaga qarshi kurash kompetentligini takomillashtirish mazmunida o\_quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishda axborot texnologiyalari yordamida va amaliy tadbirlar uchrashuvlar tashkil etish dolzarb masalaga aylandi. Bo\_lajak o\_qituvchilarda korrupsiyaga qarshi kurash mafkuraviy imunitetni shakllantirish va rivojlantirishda quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir: kuzatish, anonim so\_rovnomalar, didaktik o\_yinlar, topshiriqlar, juftlikda ishlash, musobaqa, viktorina, nostandart ijodiy topshiriqlar va boshqalar.

O\_zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to\_g\_risida qonuning 18-modda esa ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya olib borish haqida ko\_rsatmalar kiritilgan. Ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya belgilangan davlat ta'lim standartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo\_nalishlarini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim va tarbiyaga, mutaxassislarini kasbiy tayyorlashning sifatini oshirishga, ta'lim dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi. Bizning tanlov fanimiz ham aynan qonunning mazkur moddasiga asoslanadi. Ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya belgilangan davlat ta'lim standartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat ta‘limni boshqarish organlari va ta‘lim muassasalari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo\_nalishlarini inobatga olgan holda ta‘lim muassasalarida huquqiy ta‘lim va tarbiyaga, mutaxassislarini kasbiy tayyorlashning sifatini oshirishga, ta‘lim dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishga qaratilgan chora- tadbirlarni ishlab chiqadi.

Davlat organlarining xodimlari ularni korrupsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etishga ko\_ndirish maqsadida biror-bir shaxs o\_zlariga murojaat etganligiga doir barcha hollar to\_g\_risida, shuningdek davlat organlarining boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan shunga o\_xhash huquqbazarliklarning o\_zlariga ma‘lum bo\_lib qolgan har qanday faktlari haqida o\_z rahbarini yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor etishi shart. Ushbu majburiyatning davlat organlarining xodimlari tomonidan bajarilmaganligi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo\_ladi.

Korrupsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etganlik qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo\_ladi.

Korrupsiyaga oid huquqbazarlik sodir etgan shaxslar sudning qaroriga ko\_ra muayyan huquqlardan, shu jumladan muayyan lavozimlarni egallash huquqidan qonunga muvofiq mahrum etilishi mumkin.

Yuridik shaxslar korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar bo\_ladi. Korrupsiyaga oid huquqbazarliklar to\_g\_risida axborot berayotgan shaxslar davlat himoyasida bo\_ladi.

Korrupsiyaga oid huquqbazarliklar to\_g\_risida axborot berayotgan shaxslarni ta‘qib etish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo\_ladi.

Korrupsiyaga oid huquqbazarliklar natijasida qabul qilingan qarorlar manfaatdor shaxsning arizasiga ko\_ra vakolatli davlat organi, boshqa tashkilot yoki mansabdar shaxs tomonidan bekor qilinishi yoxud o\_zgartirilishi yoki sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Korrupsiya jamiyatdagi shunday illatki, u ma‘lum bir sohaga emas, balki butun jamiyat taraqqiyotiga to\_g\_anq bo\_ladi. Davlatni ich-ichidan emiradigan ana shunday illat – korrupsiya va poraxo\_rlikdir. Aynan shu illat sababli ko\_plab davlatlarning inqirozga yuz tutgani ham tarixdan ma‘lum. Mazkur qonun jamiyatdagi shu illatni tugatish uchun ishlab chiqildi

Oliy ta‘lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlar 7 ta bo\_limdan iborat «Yo\_1 xaritasi», ya‘ni umumiylashkiliy-amaliy chora-tadbirlar, qabul jarayoni, ta‘lim berish va talabalar bilimini baholash, o\_qishni ko\_chirish, o\_qishga tiklash va nostrifikatsiya, OTMlar faoliyatini takomillashtirish, professor-o\_qituvchilarning ijtimoiy himoyasi, byudjet mablag\_laridan maqsadli foydalanishdan iborat va uning asosidagi 42 ta band ijrosiga vazirlik mas‘ul etib belgilangan

O\_zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimining barcha rahbar va xodimlari —Ta‘lim to\_g\_risidalgi Qonun va O\_zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo\_nalishi bo\_yicha Harakatlar strategiyasi va Taraqqiyot strategiyasi ijrosini samarali ta‘minlashda oliy ta‘lim sohasidagi islohotlarning o\_ta muhim ahamiyatini va dolzarbligini to\_liq anglagan holda:

birinchidan, oliy ta‘lim muassasalarini tajribali, halol va pok vijdonli, mas‘uliyatli professor-o\_qituvchi va xodimlardan shakllantirib, ularning vazifalarini aniq belgilab berish;

ikkinchidan, abiturientlarning oliy o\_quv yurtlariga qabul qilish jarayoniga, kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o\_tkazishga, talabalar bilimini baholashga hamda o\_qishini ko\_chirish yoki qayta tiklashga, o\_qishlarini boshlashi uchun turli xil sun‘iy to\_siqlarga, fuqarolardan har xil noqonuniy to\_lov undirilishiga yo\_1 qo\_yilmasligiga ko\_maklashadigan —Jamoatchilik kengashi ni tashkil etib, adolat va shaffoflikni ta‘minlash;

uchinchidan, talabalarning o\_qishni ko\_chirish va qayta tiklash to\_g\_risidagi murojaatlarini rad etish, ortiqcha hujjatlar talab qilish holatlarining oldi olinishini, shuningdek, fuqarolarning arizalarini o\_z vaqtida ko\_rib chiqilishi hamda ortiqcha ovoragarchiliklarga yo\_1 qo\_yilmasligini ta‘minlash;

to\_rtinchidan, professor-o\_qituvchi va talaba o\_rtasidagi byurokratik to\_siqlarga yo\_1 qo\_ymaslik choralarini ko\_rib, ularning faoliyatini doimiy tahlil qilib borishni, baholash mezonlaridagi shaffoflikni kuchaytirib, adolat ularning bilimini baholashda asosiy faktor bo\_lishini belgilovchi choralarни ko\_rish;

beshinchidan, oliy ta‘lim muassasalarini moliyalashtirishning (davlat byudjeti, shu jumladan, markazlashtirilgan mablag\_lar hisobidan, o\_qitishning to\_lov kontrakt shakli, rivojlantirish jamg\_armasi va grant mablag\_lari hisobidan) amaldagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlariga rioya qilinishini, xarajatlar ko\_rsatkichlarini shakllantirish tartibiga amal qilish va ichki moliyaviy taftish ishlarini takomillashtirishni, ushbu jarayonda korrupsiyaga oid holatlarni o\_z vaqtida aniqlash va bartaraf etilishini qat‘iy nazoratini hrnatish;

oltinchidan, kadrlarni qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini tayyorlash va tatbiq etish, xodimlarni ishga qabul qilish va lavozimga tayinlash, ta‘lim muassasalarini maqsadli o\_rganish kabi masalalar bilan bog\_liq barcha ishlarda korrupsiyaning oldini olish va shaffoflikni ta‘minlashga jiddiy e‘tibor qaratish;

yettinchidan, tizimda korrupsiyaning oldini olish va barcha jarayonlarda shaffoflikni ta‘minlashga qaratilgan targ\_ibot-tashviqot, tushuntirish ishlari hamda ma‘naviy-ma‘rifiy va tashkiliy tadbirlarni (o\_rganishlar, ijtimoiy so\_rovlari, tanlovlari va boshqalar) yuqori saviyaga ko\_tarish vazifalari bajarish.

Yuqoriga ko\_rsatilgan qonun-qoidalarni ijrosini taminlash maqsadida Oliy ta‘lim tizimida bo\_lajak o\_qituvchida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlar takomillashtirishda, Farg‘ona davlat universiteti korruptsiyaga qarshi kurashish

—Komplayens nazorat tizimini va Tyutorlik faoliyati bilan ishlayotgan ustozlar bilan 2021-2022 yil va 2022-2023 yil o\_quv yili davomida amaliy ishlar olib borildi. Tyutorlik faoliyati bilan shugullanayotgan ustozlar bilan Bo\_lajak o\_qituvchida korrupsiyaga qarshi kurashish kompetentligini takomillashtirish maqsadida yillik ish rejalariga kiritilib yil davomida amaliy ishlar olib borildi.

Universitet sharoitida korrupsiyaga qarshi kompetensiyani shakllantirish modeli, metodolik komponent mazmuni komponenti maqsad: korrupsiyaga qarshi kompetensiyatining yuqori darajasiga bo\_lgan tizimini shakllantirish.

Bo\_lajak o\_qituvchida korrupsiyaga qarshi kurashish kompetentligini takomillashtirish Vazifalar:

1. Fuqarolik xulq-atvorining huquqiy va axloqiy me‘yorlarini amaliy rivojlantirish va qo\_llash zarurligini anglash uchun sa‘y-harakatlarni safarbar etish.
2. Rivojlanishning madaniy va intellektual darajasini oshirish, samarali intellektual faoliyat qobiliyatini tarbiyalash.
3. Kasbiy sohada ma‘suliyatni tarbiyalash.
4. Ijtimoiy passivlikni yengish.
5. Faoliyat fuqarolikni tarbiyalash.
6. Korrupsiyaga qarshi munosabatni shakllantirish.

Bo\_lajak o\_qituvchida korrupsiyaga qarshi kurashish kompetentligini takomillashtirish Prinsiplari:

- 1) korrupsiyaga qarshi komponentga e‘tibor qaratgan holda universitetdagi o\_quv jarayonini kasbiy ta‘limga yo\_naltirish;
  - 2) Ta‘lim jarayoniga integratsiyalashuv;
  - 3) Talabalarni asosiy va kasbiy madaniyatga jalg qilish orqali korrupsiyaga qarshi kompetensiyasini shakllantirish jarayonini boshqarish;
  - 4) Kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabaning korruptsiyaga qarshi sub‘ektiv pozitsiyasini ta‘minlash;
  - 5) Sub‘ektlari o\_rtasidagi munosabatlarni insonparvarlashtirish; Baholash komponenti diagnostik qilish pedagogik yordam:
    1. Pedagogik sharoitlarni tashkil etish.
    2. Shaxs xususiyatlarini shakllantirishga pedagogik yordam.
3. Ta‘sir qilish, yordam berish, shakllantirish va mustahkamlashni pedagogik nazorat qilish.

4. Ketma-ket asoratlanish tamoyilining pedagogik yechimi. Kasbiy ta‘lim bosqichlar:
1. Kognitiv
  2. Motivatsion
  3. Reproduktiv

#### 4 Rivojlanish

Kasbiy ta‘lim korrupsiyaga qarshi kompetensiyatni shakllantirishni baholash mezonlari tizimi, Psixologik kognitiv tartibga soluvchi ijtimoiy-professional korrupsiyaga qarshi status shakllanishini boshlangan darajalari

1-qabul qilib bo\_lmaydigan 2-past

3-qoniqarli 4-o\_rta

5-yuqori

Korrupsiyaga qarshi yuqori saviyaga ega bo\_lgan shaxsnini shakllantirish bosqichlarini ta‘lim mazmuni korrupsiyaga qarshi kompetensiyasini yuqori darajasiga bo\_lganprofession shakllantirish.

Ta‘lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlari ishlab chiqish zarur unda bo\_lajak o\_qituvchilarda axborotning ochiqligi va shaffofligiga qo\_yiladigan talablarni

belgilab beradi ta'lim tashkilotlari faoliyati, ta'limning huquqiy holati tashkilotlar, shuningdek, pedagogik xodimlarning huquqiy maqomi, o\_zlari talabalar va ularning ota- onalari (qonuniy vakillari) O\_zbekiston Ta'lim va fan vazirligi o\_z vakolatlari doirasida Korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan bir qator farmoyishlar qabul qilish lozim. O\_liy o\_rta ta'lim vazirligi tomonidan shaxsiy qiziqishning paydo bo\_lishi olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo\_lgan ish majburiyatlar manfaatlar to\_qnashuvi ta\_lim va fan sohalarida korrupsiyaga qarshi kurashish rejasi, nizomlarini ishlab chiqish.

Har bir universitetda ozining korrupsiyaga qarshi kurash dastur bo\_lishi kerak. Dasturning asosiy maqsadi korrupsiyani yo\_q qilish bo\_lishi kerak korrupsiyani yuzaga keltiruvchi sabab va shart-sharoitlar, korrupsiyaning oldini olish ko\_rinishlari. Universitetdagi korrupsiyaga qarshi dastur Asosiy maqsadi korruptsiyaga olib keladigan sabablarni bartaraf etishdir. Bo\_lajak o\_qituvchilarda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning muhim omili shakillatirish.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

#### **O\_zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari**

1. O\_zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-yanvar,O\_RQ-419-son Korrupsiyaga qarshi kurashish to\_g\_risida qonun <https://G'G'lex.uzG'docsG'-3088008>

2. O\_zbekiston Respublikasi 2019 yil 27 maydag'i —O\_zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to\_g\_risida||gi PF-5729-sonli Farmoni <https://G'G'lex.uzG'docsG'-4355387>

3. O\_zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 29- iyundagi PF-6013-sonli

—O\_zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo\_yicha qo\_shimcha chora-tadbirlar to\_g\_risida|| gi farmoni <https://G'G'lex.uzG'docsG'- 4875784>

#### **O\_zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari**

4. Shavkat Mirziyoyev 2017 — 2021-yillarda O\_zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo\_nalishi bo\_yicha Harakatlar strategiyasi Toshkent sh.,2017-yil 7-fevral, PF-4947-son

5. Shavkat Mirziyoyev 2022 — 2026 yillarga mo\_ljallangan yangi O\_zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi Toshkent sh., 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son

6. Shavkat Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qatiytartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.

#### **Asosiy adabiyotlar**

4. O\_zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 11- maydag'i PQ-240-son qarori <https://G'G'lex.uzG'docsG'-6000285>

5. O\_zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi ma\_lumotlaridan<https://G'G'kun.uzG'uzG'66056438>

6. <https://G'G'daryo.uzG'2022G'05G'04G'ozbekistonda-56-foiz-oqituvchilar-salohiyati- talab-darajasida-emas-xalq-talimi-vaziriG'?ysclidql3u95ewsx1>.